

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA AJRIMLAR SONINING OSHIB BORISHINING ASOSIY OMILLARI

Ajrimlar qanday kelib chiqadi va uning sabablari?

Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat barqarordir.

Qanday yechim bera olamiz?

Aribbayev Toxir Timur o'g'li

Jamoat Xavfsizligi Universiteti

Yurisprudensiya yo'naloishi 1-kurs

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda ajrimlar sonining ortib borishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar kompleks tahlil qilinadi. Statistika ma’lumotlar asosida oilaviy nizolarning asosiy sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, ayollar huquqlari, Ajrim, oila instituti, sadoqatsizlik, spirtli ichimliklar, ijtimoiy muammo, demografiya.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda ajrimlar sonining ortib borayotgani jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oila institutining zaiflashuvi nafaqat demografik ko‘rsatkichlarga, balki jamiyatning ma’naviy muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur muammoning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Masalan, oila boshlig‘ining uzoq muddatli mehnat migratsiyasida bo‘lishi. Bu holatda oilada ma’naviy bo‘shliq yuzaga keladi, farzand tarbiyasi oqsoqlanadi va er-xotin o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlik uziladi, natijada oila "faqat qog‘ozda" qolib, amalda

parchalanadi. Bundan tashqari, to'liqsiz oilada o'sayotgan bolada ko'pincha jamiyatga nisbatan agressiya (tajovuzkorlik) yoki o'ziga ishonchsizlik shakllanadi. Otaning qat'iyati yoki onaning mehri yetishmasligi oqibatida bola ma'naviy tarbiyani ko'chadan qidira boshlaydi. Bu esa kelajakda jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning ortishiga olib keladi.

ASOSIY QISM

Sadoqatsizlik ya'ni xiyonat, oilaviy munosabatlarda ishonch eng muhim omil hisoblanadi. Sadoqatsizlik er-xotin o'rtasidagi ishonchni buzib, nizolar va ajrimlarga olib keladi. Xiyonat kelib chiqishiga asosiy sabablar shuki, nikohning ikki tomonning roziligisiz qurilishi va yetarli darajada oila qurishga bo'lgan mas'uliyat yetishmasligi. Roziliksiz nikoh qurishga keladigan bo'lsak O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi va Oila kodeksining moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning **76-moddasi** Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. **Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.** Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Oila kodeksining **14-moddasi.** Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

Spirтли ichimliklarga qaramlik, ichkilikbozlik oiladagi nizolarni kuchaytiradi, iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi va zo'ravonlik holatlariga sabab bo'lishi mumkin. Bu oilaviy zo'ravonlikga asosiy sabab bo'lib, asosan oila boshi spirтли ichimlik iste'mol qilib, o'zini to'liq boshqara olmaydi va natijada nafaqat ayoliga balki oilasigaham jiddiy ziyon yetkazadi. Bu holat faqatgina ajrimga sabab bolmay boshqa jinoyatlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, tiriklay yoqib yuborish holatlari ham kuzatilgan.

Qarindosh-urug'lar aralashuvi, ba'zi hollarda uchinchi shaxslarning (ota-ona yoki qarindoshlar) ortiqcha aralashuvi oilaviy nizolarni kuchaytiradi. Masalan, yangi

turmush qurgan er-xotin kuyovning ota-onasi bilan birga yashaydi. Qaynona kelinning uy ishlarini bajarish uslubidan norozi bo'lib, tez-tez tanbeh beradi. Natijada kelin o'zini noqulay his qiladi va er-xotin o'rtasida janjallar ko'payadi. Bundan tashqari, ota-ona o'g'liga doim **“xotining shunday bo'lishi kerak edi”** deb boshqa oilalar bilan solishtiradi. Bu esa er-xotin o'rtasida ishonchsizlik va nizo keltirib chiqaradi. Qiz tomondagi qarindoshlar er-xotinning moliyaviy qarorlariga aralashib, qimmat sovg'alar yoki ortiqcha xarajatlarni talab qiladi. Bu esa oilada iqtisodiy bosim va tortishuvlarga sabab bo'ladi.

Erta nikoh va tayyorgarlikning yo'qligi yoshlarning hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagani sababli oilani boshqarish qiyinlashadi. Masalan, erta nikoh va tayyorgarlikning yo'qligi yoshlarning hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagani sababli oilani boshqarish qiyinlashadi va 18–19 yoshda turmush qurgan yoshlar hali mustaqil hayotga tayyor bo'lmaydi. Oddiy uy-rozg'or ishlarida ham kelisha olmay, tez-tez janjallashadi.

Bu muammolarga quyidagicha yechim berishimiz mumkin. Sadoqatsizlik (xiyonat) muammosiga yechim: Nikohdan oldin psixologik va ma'naviy tayyorgarlik kurslarini joriy etish, oilaviy hayotda o'zaro hurmat va sadoqat qadriyatlarini targ'ib qilish, ajrim jarayonida jabrlangan tomon uchun fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlar o'rtasida ongli va ixtiyoriy nikoh tushunchasini mustahkamlash, ya'ni bularning barchasini oilaviy tarbiyadan boshlash kerak. Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo'lsak, oilaviy sadoqatsizlikka (xiyonatga) nisbatan yondashuvlar turli davlatlarda keskin farq qiladi. Xususan, ayrim musulmon davlatlarida bu holat jinoiy javobgarlik doirasida ko'rib chiqiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni va Eron davlatlarida sadoqatsizlik holatlari shariat qonunlari asosida baholanib, qamoq jazosi yoki boshqa qat'iy choralar qo'llanilishi mumkin. Pokistonda esa tarixan bunday holatlar jinoiy javobgarlikka sabab bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunda qonunchilikda ma'lum darajada yumshash kuzatiladi. Shu bilan birga, ayrim

musulmon davlatlarida, jumladan Turkiya, Indoneziya va Birlashgan Arab Amirliklarida sadoqatsizlik ko‘proq fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida baholanadi. Bunday holatlarda u asosan nikohni bekor qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi yoki mol-mulk taqsimotida inobatga olinadi. Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, oilaviy sadoqatsizlikka nisbatan qat’iy jinoiy jazolar faqat ayrim davlatlarda mavjud bo‘lib, ko‘pchilik mamlakatlarda ushbu holat ijtimoiy va axloqiy muammo sifatida qaraladi. Shu bois, muammoni hal etishda jazolashdan ko‘ra profilaktika, oilaviy tarbiya va ongni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Spirtni ichimliklarga qaramlik muammosiga yechim: Spirtni ichimliklarga qarshi profilaktik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, ichkilikbozlik bilan bog‘liq holatlar uchun ma‘muriy jarimalar va nazorat choralari kuchaytirish, reabilitatsiya markazlari va psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish, diniy va ma‘naviy yo‘nalishda tushuntirish ishlari (ma‘ruzalar) olib boorish.

Qarindosh-urug‘lar aralashuvi muammosiga yechim: Yosh oilalarda mustaqil qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish, oilaviy hayotda shaxsiy chegaralar belgilashni o‘rgatish, ota-onalar uchun ham oilaviy psixologiya bo‘yicha tushuntirish ishlari olib boorish va imkon qadar yosh oilalarga alohida yashash sharoitini yaratish.

Erta nikoh va tayyorgarlik yetishmasligi muammosiga yechim: Nikohdan oldin majburiy tayyorgarlik kurslarini (oila maktablari) joriy etish, yoshlarni iqtisodiy va psixologik jihatdan tayyorlash, ota-onalar tomonidan majburlab turmushga berish holatlariga qat’iy qarshi kurashish va ta‘lim muassasalarida oilaviy hayotga tayyorlovchi darslarni joriy etish. Ushbu muammolarni hal qilish uchun faqat jazolash emas, balki tarbiya, ta‘lim va ongni o‘zgartirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarur. Oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham barqaror bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Zamonaviy O‘zbekistonda oilalarning ajrim bilan yakunlanishiga olib kelayotgan omillar murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, sadoqatsizlik, spirtli ichimliklarga qaramlik, qarindosh-urug‘larning ortiqcha aralashuvi hamda erta nikoh va tayyorgarlikning yetishmasligi kabi omillar oilaviy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi. Ushbu muammolar ko‘pincha o‘zaro ishonchning yo‘qolishi, mas’uliyatning pastligi va yetarli hayotiy tajribaning yo‘qligi bilan bog‘liq holda yanada kuchayadi. Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun faqatgina huquqiy choralar yetarli emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va psixologik yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yoshlarni nikohga ongli ravishda tayyorlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ichkilikbozlikka qarshi kurashni kuchaytirish hamda oilaning mustaqilligini ta’minlash orqali ajrimlar sonini kamaytirish mumkin. Shuningdek, jamiyatda sog‘lom oila muhitini shakllantirish va har bir shaxsda oilaviy mas’uliyat hissini rivojlantirish barqaror ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
3. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti
5. O‘zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy sayti
6. World Health Organization (WHO) — Social and family studies
7. United Nations Development Programme (UNDP) reports
8. Encyclopedia Britannica — Family and marriage studies